

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2023.T.02.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

SAFAROV RUSTAM ABDULLAYEVICH

**TASVIR TARKIBIY ORTIQCHALIGI XOSSALARI ASOSIDA
MIKROOB'EKTLAR IDENTIFIKATSIYALANISHINI
MAQBULLASHTIRUVCHI USULLAR**

05.01.02- Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash

**TEXNIKA FANLAR BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Safarov Rustam Abdullayevich

Tasvir tarkibiy ortiqchaligi xossalari asosida mikroob'ektlar
identifikatsiyalanishini maqbullashtiruvchi usullar..... 3

Сафаров Рустам Абдуллаевич

Методы оптимизации идентификации микрообъектов на основе свойств
избыточных структурных составляющих изображений..... 19

Safarov Rustam Abdullayevich

Methods for optimizing micro-object identification based on the properties of
redundant structural components of images 37

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 41

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2023.T.02.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

SAFAROV RUSTAM ABDULLAYEVICH

**TASVIR TARKIBIY ORTIQCHALIGI XOSSALARI ASOSIDA
MIKROOB'EKTLAR IDENTIFIKATSIYALANISHINI
MAQBULLASHTIRUVCHI USULLAR**

05.01.02- Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash

**TEXNIKA FANLAR BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/T2827 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jumanov Isroil Ibragimovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kalandarov Palvan Iskandarovich
texnika fanlari doktori, professor

Gulyamov Javlon Nurillayevich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.12.2023.T.02.12 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «9» yanvar soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi, (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15., Tel.: (99866) 239-11-40, faks: (99866) 239-11-40.

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (127 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15., Tel.: (99866) 239-11-40, faks: (99866) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «24» Dekabr da tarqatildi.
(2024 yil «23» Dekabr dagi 3- raqamli reyestr bayonnomasi.)



[Handwritten signature]

A.R.Axatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

F.M.Nazarov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent

[Handwritten signature]

X.A.Primova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda elektron, raqamli va intellektual boshqaruv tizimlarini avtomatlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda AQSh, Xitoy, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Angliya, Janubiy Koreya va Hindiston kabi rivojlangan mamlakatlarda mikroob'ektlar tasvirini aniqlik bilan identifikatsiya qilish, tanish va sinflashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish, tibbiyot, palinologiya kabi sohalarning rivojlanishiga hissa qo'shishiga qaratilgan. Havoning ifloslanishini bashorat qilish va o'rganish uchun ma'lumotlar bazalari, havodagi chang zarralarini avtomatlashtirilgan identifikatsiya qilish, tanish, tasniflash va tizimlashtirish usullari qo'llanilmoqda. Havodagi chang na'munalarini yig'ish, hisoblash, tahlil qilish va identifikatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi Yevropa mamlakatlari har hafta global tarmoq orqali ma'lumot yuboradi. Ayniqsa, murakkab tizimlarda mikroob'ektlar tasvirini tahlil qilish, ma'lumotlarni qayta ishlash va boshqarish usullarini ishlab chiqish zaruriyatini ilmiy jihatdan asoslashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda belgilangan ilmiy yo'nalishdagi ijobiy natijalar ko'p variantli qarorlar qabul qilish, keng spektrda statistik, dinamik, ehtimolli, intellektual modellarni qo'llash usullari, hamda turli tipdagi – chang zarralari, bir hujayrali mikroorganizmlar, tibbiyot ob'ektlari, foydali minerallar tasvirlariga ishlov beruvchi model va algoritmlarni yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, mikroob'ektlar tasvirini identifikatsiya qilishda yechilishi kerak bo'lgan muammolar, jumladan, tasvirda "shovqin"li ta'sir, nuqtalar xiraligi, xalaqitlar (помеха), axborotda xato sodir bo'lishi, siljish kabi turli nuqsonlar kuzatiladi. Bu esa, tasvirlarni identifikatsiya qilish, tanish va sinflashtirish jarayonida jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi. Shu bilan birga, inson faktorining ta'sirini kamaytirishga qaratilgan texnologiyalarni rivojlantirish yo'nalishida mikroob'ektlar tasviri tarkibiy ortiqchaligi xossalari – statistik, dinamik, morfometrik, geometrik va boshqa tasniflardan foydalanish vositalarini qurish, hamda identifikatsiya qilish, tanish va sinflashtirishning maqbul mexanizmlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda sun'iy intellekt, raqamli boshqaruv usullari va avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarini qo'llash barcha sohalarga jadal joriy qilinmoqda, xususan, palinologiya, ekologiya, don seleksiyasi va urug'chiligi, atrof muhitni muhofaza qilish, tibbiyot tizimlarida yuqori aniqlikdagi identifikatsiya qilish texnologiyalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu sohalarda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordamida mikroob'ektlarni aniqlash, tasniflash va analiz qilishning samarali usullari ishlab chiqilmoqda. O'zbekiston Respublikasi prezidentining «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonida, jumladan, «... axborot texnologiyalari sohasida tijoratlashtirish salohiyati baland bo'lgan yuqori texnologik mahsulotlar yaratilishiga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot

ishlanmalari ishlab chiqilishini rivojlantirish ...»¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda jumladan, mikroob'ektlar tasvirining tarkibiy komponentlari, ularning xossalari va tasniflariga asoslangan usullar, mexanizmlar va texnologiyalarni yanada takomillashtirish, tasniflashning intellektual tizimlarini rivojlantirish va keng qamrovda joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 – son, 2018-yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349 – son, 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079 – sonli Farmonlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Axborotlashtirish va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyo bo'ylab bir qancha olimlar, tadqiqotchilar va ekspertlar mikroob'ektlarni identifikatsiya qilish, tanish va sinflashtirish ustida tadqiqotlar olib bormoqdalar. Xorijiy olimlar S.Horowitz, T.Pavlidis, R.M.Haralick, L.G.Shapiro, S.Lloyd va Yu.I.Juravlev tomonidan ishlab chiqilgan ehtimolli modellar, mashinaviy o'qitish algoritmlari va intellektual yondashuvlar mikroob'ektlar tasvirini qayta ishlashda sezilarli natijalarni ta'minlab, bu yo'nalishda samarali ilmiy tadqiqotlar uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda. Tasvirlarni optimal identifikatsiya qilish usullarini rivojlantirishda J.Long, W.Liu, H.Noh, A.Krizhevsky, G.E.Hinton, O.Ronneberger, T.-Y. Lin, R.Girshick, H.Zhao kabi olimlar tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

Shuningdek O'zbekistonda V.K.Kabulov, N.R.Yusupbekov, M.M.Kamilov, X.Z.Igamberdiyev, A.V.Kabulov, I.I.Jumanov, R.X.Xamdamov, X.N.Zaynidinov kabi yetakchi mutaxassislar tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash nazariyalarini rivojlantirishda o'zlarining katta hissasini qo'shib kelishmoqda.

Yuqorida keltirilgan olim va tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tizimli tahlil qilinishi natijasida mikroob'ektlar tasvirini identifikatsiya qilish, tanish va sinflashtirishda model va algoritmlar yetarli darajada o'rganilmaganligi aniqlandi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasi hamda davlat ilmiy tadqiqot dasturi A5-039 «Ma'lumotlarni intellektual tahlil qilishning parallel algoritmlarini qurish dasturiy vositalarini ishlab chiqish» (2018-2020 yy.) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni

Tadqiqotning maqsadi. Mikroob'ektlarni optimal identifikatsiya qilish, tanish, sinflashtirishda tasvir tarkibiy ortiqchaligi xossa va tasniflaridan foydalanish imkoniyatini beruvchi usullarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilarni tashkil qiladi:

mikroob'ektlarni identifikatsiya qilish, tanish va sinflashtirish uchun tasvir tarkibiy ortiqchaligi xossalari va tasniflaridan umumli foydalanish imkonini beruvchi ilmiy uslubiyat, maqbul yondashuv, tamoyillar va modellarni aniqlash hamda ishlab chiqish;

zamonaviy kompyuter texnologiyalari, statistik, dinamik, ehtimolli modellar, turli arxitekturadagi neyron tarmoqlarini hamda tasvir signallarining statistik, dinamik, morfometrik, geometrik, chastotali va spektral xususiyatli vositalarini umumlashtirish asosida mikroob'ektlarni optimal identifikatsiya qilish model va algoritmlarini ishlab chiqish;

bo'sag'ali, qattiq va yumshoq xatolik nazorati, kontur nuqtalarining yorqinligini aniqlash, tasvirning tarkibiy qismlarining xususiyatlaridan foydalanish asosida mikroob'ektlarni optimal identifikatsiya qilish gibril model va algoritmlar yaratish;

mikroob'ektlarni identifikatsiya qilish, tanish va sinflashtirishda ko'p mezonli optimallashtirish imkonini yaratuvchi samarali algoritmlar, funksional modullar va dastur majmuasini joriy etish va qo'llash.

Tadqiqot ob'ekti sifatida palinologiya, ekologiya, don seleksiyasi, bemorlar diagnostikasi tizimlaridagi chang zarrasi, mikroskopik va tibbiyot ob'ektlari tasvirini qayta ishlash jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida mikroob'ektni optimal identifikatsiya qilish, tanish, sinflashtirish, usul, model, algoritmlar va dasturiy majmua tizimlari olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tizimli tahlil nazariyasi, boshqaruv, algoritmlashtirish, modellashtirish, axborotlarni qayta ishlash, tasvirlarni identifikatsiya qilish va neyron tarmoqlari usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mikroob'ektlarni optimal identifikatsiya qilishda tasvirning tarkibiy ortiqchaligi xossalariidan foydalanuvchi va tasvir konturidagi nuqtalarning statistik, dinamik, morfometrik, geometrik, gistologik, chastotali va spektral xususiyatlariga asoslangan model va algoritmlari ishlab chiqilgan;

kiruvchi va etalon tasvirlar konturlari xosligini nuqtali, noxiziqli nazorat qilish, segmentlash, ortiqchalikka ega nuqtalarni bartaraf etish, rastr o'lchamini qisqartirish, masshtablash va ko'p bosqichli nazoratni amalga oshirishga asoslangan mikroob'ektlarni identifikatsiya qiliuvchi mexanizmlar ishlab chiqilgan;

adekvat tavsiflash vositalarining sintezi, gibril modellar o'zgaruvchilarini muvofiqlashtirish, statistik, korrelyatsion va mantiqiy bog'lanishlar, nuqtalar ketma-ketligi dinamikasi hamda turli arxitekturadagi neyron tarmoqlardan foydalanishga asoslangan mikroob'ektlar tasvirini identifikatsiya qilish mexanizmlari ishlab chiqilgan;

tasvir konturi nuqsonli nuqtalarini bartaraf qilishda qattiq va yumshoq bo'sag'ali nazoratni qo'llovchi, Gauss va mediana filtrlariga asoslangan, kontur nuqtasi xatoligini ruxsat etilgan chegaralarda, ular orttirmalari, ekstrapolyatsiya

xatoliklari qiymatlari nazorati bo'yicha, nuqta yorqinligidan foydalanishga asoslangan vositalarni qo'llovchi mikroob'ektlarni identifikatsiya qilish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mikroob'ektlarni aniq identifikatsiya qilish, tanish, sinflashtirish imkonini yaratuvchi mikroob'ektlarni identifikatsiya, tanish va tasniflashni amalga oshiruvchi dasturiy majmua ishlab chiqilgan;

tasvir konturi nuqtalari statistik, dinamik, geometrik, morfologik va signalli tasniflaridan foydalanish vositalari, mikroob'ektlarni tezkor qayd qilish, tanish, sinflashtirish vazifalarini amalga oshirish vositalari ishlab chiqilgan;

dasturiy majmua modullari axborotga ishlov berishni yuqori aniqlikda, tezlikda, kam murakkablik ko'rsatkichlari qiymatida amalga oshiradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi mikroob'ekt tasviri tarkibiy ortiqchaligi xossalari asoslangan maqbul identifikatsiya qilish usullaridan foydalanish, ishlab chiqilgan dasturiy majmuaning yaroqliligi, nazariy va amaliy natijalarning mosligi, statsionar bo'lmagan ob'ektlarni bashorat qilish masalalarini real sharoitlarda yechish, hamda joriy etilgan algoritmlarning samaradorligini qiyosiy tahlil qilish orqali izohlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy mohiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan model va algoritmlar tasvir tarkibiy ortiqchaligi xossa va tasnifidan samarali foydalanish imkoniyatlarini beradi, hamda mikroob'ektlarni identifikatsiya qilish, tanish va sinflashtirish amallari neyron tarmog'i asosida qurilgan dinamik model bo'yicha bajarilganda optimal yechimlar berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan dasturiy majmua mikroob'ektlarni identifikatsiya qilish aniqligini nazorat qilishda tasvirni tahlil qiluvchi statistik, dinamik, geometrik, morfologik, gistologik tasniflardan foydalanib axborotda sodir bo'ladigan xatoliklarni sezilarli darajada kamaytiradi, tanib olish va sinflashtirish aniqligini oshirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiya tadqiqotlari doirasida tasvir tarkibiy ortiqchaligi xossalari asosida mikroob'ektlar identifikatsiyalanishini maqbullashtiruvchi usullar mavzusi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kiruvchi va etalon tasvirlar mosligini nuqtali va noxiziqli tekshirish, ajratish, segmentlash, nol nuqtani reduksiyalash, rastr o'lchamini qisqartirish, masshtablash, bo'sag'a va ko'p bosqichli dinamik nazorat qilish, nuqta qiymatini muvofiqlashtirish vositalariga asoslangan algoritmnining dasturiy vositasi G'allaorol shahri "Lalmikor dehqonchilik" Ilmiy tadqiqot institutida "Don seleksiyasi va urug'chiligi" masalalarida qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 23-maydagi 33-8/3411 sonli ma'lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan dasturiy vosita mikroob'ektlar tasvirlarini tanish va sinflashtirish jarayonini tezlashtirdi, hamda identifikatsiya qilishdagi yutuq koeffitsiyenti qiymatini 3-5 martagacha oshirilishiga erishilgan;

statistik, korrelyatsion, mantiqiy va morfologik tasniflar, nuqtalar bog'liqligi, kontur dinamikasi va axborotlardagi xatolarni qattiq va yumshoq bo'sag'alar asosida nazorat qilish vositalarini sintez qilishga asoslangan algoritmnining dasturiy

vositasi “Oziq - ovqat ingrediylentlari tarkibi va qiymatlarini tahlil hamda qayd qilish” masalalarini yechishda Jizzax viloyati “Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi” boshqarmasida qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 23-maydagi 33-8/3411 sonli ma‘lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan dasturiy vosita mikrozaralarni tanish va sinflashtirish ishonchliligini 84% dan 87% gacha oshirildi, axborotga ishlov berish murakkabligini 3-4 martagacha kamaytirilishga erishilgan;

model o‘zgaruvchisi maqbul qiymatini aniqlash, kontur nuqtasini ruxsat etilgan qiymatlar, orttirmalar va ekstrapolyatsiya noaniqligi chegaralari bo‘yicha nazorat qilish vositalariga asoslangan algoritimning dasturiy vositasi “Korhonalar texnik - iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, axborotlarga ishlov berish, hamda bashorat qilish” bo‘yicha “O‘zbektelekom” AJ Samarqand filiali faoliyatida qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 23-maydagi 33-8/3411 sonli ma‘lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan dasturiy vosita identifikatsiya qilish aniqligini 98,3% ga, axborotga ishlov berish tezligini 2 martagacha, hamda mikroob‘ektlarni tanish va sinflashtirish ishonchliligini 19% gacha oshirilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta xalqaro va 4 respublika miqyosidagi ilmiy - amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo‘yicha 36 ta ilmiy maqola va ma‘ruza tezislari chop etilgan bo‘lib, ulardan 5 tasi ilmiy jurnal maqolalari, 14 tasi Skopus ma‘lumotlar bazasida, 10 tasi xalqaro, 4 tasi respublika miqyosidagi ilmiy konferensiya materiallarda, hamda 3 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarni qayd qilish guvohnomalari olingan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 111 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Tasvir tarkib xossalari va tasnifidan foydalanish vositalari bo‘yicha mikroob‘ektlarni identifikatsiya qilish ilmiy–uslubiy asoslarini ishlab chiqish**” nomli birinchi bobida mikroob‘ektlar tasviri statistik, dinamik, morfologik, geometrik, kontur nuqtalari yorqinligi tasnifi va xossalardan foydalanish bo‘yicha mikroob‘ektlarni identifikatsiya qilish, tanish, sinflashtirishga yo‘naltirilgan maqbul yondashuv, prinsip, usullar ishlab chiqilgan. Taklif etilgan model va algoritmlar mikroob‘ektlar tasvirini vizuallashtirishda, tarkib nuqtalari bog‘lanishligidan foydalanishda, qismlari dinamikasini moslashtirishda, modellari o‘zgaruvchilari qiymatini optimallashtirishda keng imkoniyatlar yaratadi va yuqori darajadagi imtiyozlarga ega bo‘ladi.

Tadqiqotlar mikroob‘ektlarni identifikatsiya qilishda qo‘llaniladigan mexanizmlar (modellar, algoritmlar va qoidalar)ini o‘rganishni o‘z ichiga olgan bo‘lib, bu jarayonda axborotga dastlabki ishlov berish, tasvir konturini kontrastlash, segmentlash, ortiqcha nuqtalarni bartaraf qilish, rastrlar o‘lchamini

kamaytirish, masshtablash, nuqtalar qiymatlarini bo'sag'a hamda ko'p bosqichli dinamik nazorat qilish kabi vositalar qo'llaniladi. Taklif qilingan identifikatsiya mexanizmlari, rang yorqinligi tasvirining nuqtalar dispersiyasini, boshlang'ich qiymatlarni, segmentlar markazini va tasvir konturining maydonini tartibga solishga qaratilgan. Shu bilan birga, ularning imkoniyatlari kontur segmentlarining maqbul chegaralarini aniqlash, tayanch nuqtalarining nazorat chegaralarini o'rnatish, ularning qiymatini o'sish dinamikasi bo'yicha saralash, nol nuqtalarni bartaraf etish, identifikatsiya xatoligini bo'sag'ali nazorat qilish va kiruvchi hamda etalon tasvirlar konturlarining mosligini tekshirish kabi vositalar yordamida sezilarli darajada kengayadi. 1 a)-rasmda $\Theta = \sigma_n / \sigma$ - mikroob'ektlar tasvirlarini identifikatsiya qilish aniqligidagi yutuq koeffitsiyentini aks ettiruvchi samaradorlik funksiyasi, σ_n - axborotga ishlov berish xatoligining dispersiyasi va σ - tasvir konturidagi nuqtalarining dispersiyasi grafiklari namoyish qilingan.



1-rasm. Mikroob'ektlarni identifikatsiya qilish samaradorligi.

Grafiklar Θ funksiyasining instrument xatosi va N — qayta ishlanadigan axborot hajmining o'sish dinamikasiga bog'liqligini ko'rsatadi. Tadqiqotda quyidagi algoritmlar tadqiq qilingan: 1 - algoritmda segmentlash, klasterlash va reduksiya qilish vositalari qo'llanilmagan; 2 - algoritmda segmentlash, klasterlash va reduksiya qilish vositalari qo'llanilgan; 3 - algoritmda uch qobiqli neyron tarmog'i (NT) asosida umumlashgan dinamik modellari qo'llanilgan.

Quyidagi sintezlashgan algoritmlarga tayangan mexanizm samaradorligi grafiklari 1 b) – rasmida ifodalangan: 4–algoritm nuqtali qidiruv, tanish, klasterlash vositalari qo'llanilgan; 5–algoritm kuydirish yoki cheklash bo'yicha evristik qidirish vositalari qo'llanilgan; 6–algoritm kesik Markov zanjiri bo'yicha stoxastik qidiruv, tanish, sinflashtirish vositalari qo'llanilgan.

Ishda kirish va etalon mikroob'ekt tasvirlari o'zaro mosligi o'rta kvadratik xatolik mezoni bo'yicha baholanadi,

$$\Delta D = \frac{1}{I \cdot J} \sum_{i=1}^I \sum_{j=1}^J (D_{i,j} - D'_{i,j})^2, \quad i \in \overline{1, I}, \quad j \in \overline{1, J};$$

bunda $D_{i,j}$ - kirish tasviri oynasi nuqtalari dispersiyasi (i, j); $D'_{i,j}$ - etalon tasvir oynasi nuqtalari dispersiyasi (i, j); I - vertikal bo'yicha darchalar soni; J - gorizontal bo'yicha darchalar soni.

Uch qobiqli NTning ikki yo'nalishda tayanch nuqta miqdorini inobatga olgan o'rgatuvchi algoritmi tadqiq qilingan, identifikatsiya vazifasi bichiziqli interpolyatsiya algoritmi bo'yicha amalga oshirilgan, hamda tasvirni gibridd identifikatsiyasi umumlashgan algoritmi qurilgan. O'tkazilgan tajribada axborotga ishlov berish murakkabligi koeffitsiyenti quyidagi qiymatlarda: 3 - algoritm - 2 marotabaga; 2 - algoritm - 20 marotabaga; 1 - algoritm - 30 marotabaga kamayishi aniqlandi.

Tasvirni identifikatsiya qilish mexanizmlari kontur nuqtalarining dispersiya qiymatlarini bir tartibga kamaytirishga, klasterlar orasidagi masofani sezilarli darajada oshirishga va noto'g'ri tasniflangan nuqtalar sonini kamaytirishga yordam berishi aniqlangan. Agar tasvirlar surilish, rang ustunligi yoki boshqa xatoliklar sababli past sifatta taqdim etilsa, unda biz tomondan yaratilgan identifikatsiya qilish mexanizmi mavjud texnologiyalarga nisbatan ancha samaraliroq bo'lar ekan. Agar identifikatsiya qilingan tasvir noxiziqli nazorat vositasiga asoslansa, unda mexanizm aniqligi 11 barobargacha oshadi, axborotga ishlov berish murakkabligi koeffitsiyenti esa qariyb 100 marotabagacha kamayadi. Agar mexanizm Dobeshi 5 interpolyatsiya splayn-funksiyasiga asoslansa, u mavjud texnologiyalarga nisbatan 2-3 marotaba samarali bo'ladi. Agar tasvirni identifikatsiya qilish mexanizmida Gauss va mediana filtrlari, veyvlet - o'girish, rangli kodlash, nuqtalar koordinatalari va yorqinligini moslash kabi vositalar qo'llanilsa, u holda mikroob'ektlarni tanish va sinflashtirish ishonchliligi sezilarli darajada oshishi kuzatiladi.

Mexanizm vositalari identifikatsiya qilish, tanish va sinflashtirish vazifalarini bajarishda murakkablikni bartaraf etadi. Olingan natijalarning amaliy ahamiyati yuqori bo'lib, ayniqsa, don urug'i seleksiyasi, inson o'pkasi sil kasalligini diagnostika qilish, atrof-muhit ifloslanishini prognoz qilish va boshqa predmet sohalarda ijobiy natijalarga erishildi.

Umumlashtirilgan identifikatsiya mexanizmi algoritmi bug'doy urug'lari seleksiyasi va urug'chilik vazifasini hal qilish uchun taqdim etilgan 450 ta chang zarrasi tasviridan iborat jamlama orqali sinovdan o'tkazildi. Sinov natijalariga ko'ra, neyron tarmoq va dinamik model algoritmlari parallel hisoblash vositalari bilan sintezlanganda, axborotga ishlov berish murakkablik koeffitsiyentini o'rtacha 23 barobargacha kamaytirishi aniqlandi. Mikroob'ektlarni identifikatsiya qilish mexanizmlarining samaradorligi, shuningdek, rak kasalligini diagnostika qilish va parametrik o'zgarishlarni miqdoriy baholashda foydalanilgan 400 ta bir hujayrali organizmdan iborat jamlama asosida testdan o'tkazilgan dasturiy modullar orqali tasdiqlandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, mediana filtrlash, veyvlet-o'girish, rangli kodlash va yorqinlikni sozlash vositalarini qo'llash identifikatsiya xatolarini 12% dan 8% gacha kamaytiradi. Bundan tashqari, murakkab proseduralarni bartaraf etib, mexanizmning seleksiya, o'pka sil kasalligini diagnostika qilish va atrof-muhit ifloslanishini prognozlash vazifalarida samaradorlik jihatlari aniq namoyon bo'ladi.

Dissertatsiyaning **“Tasvir informatsiyasi dinamik tasniflaridan foydalanuvchi vositalar bo'yicha mikroob'ektlarni identifikatsiya qilish model va algoritmlarini yaratish”** nomli ikkinchi bobida tasvirning dinamik, geometrik tasniflari va xossalari axborotga ishlov berishga qaratilgan trend, regressiya,

moslashuvchan polinomial modellar vositalari bo'yicha mikroob'ektlarni maqbul identifikatsiya qilish yondashuvi, model va algoritmlari ishlab chiqilgan.

Tasvir nuqtalarining ruxsat etilgan qiymatlari, orttirmalar, ekstrapolyatsiya xatoliklari chegaralari bo'yicha, shuningdek, qattiq va yumshoq bo'sag'alar asosida nazorat qilish vositalari ishlab chiqilgan va qo'llanilgan. Masalalarning umumiy va xususiy yechimlari olingan. Maqbul nazorat qilish chegaralari va o'rta-kvadratik xatoliklar bahosini beruvchi matematik ifodalar topilgan. Tadqiqotda 47 trend, adaptiv eksponensial muvozanat, regressiya va oldingi n - nuqtalar bo'yicha ekstrapolyatsiya bog'lanishlari joriylashtirilgan. Ishda, dekorrelyatsiya, reduksiya, parametrlar o'zgarishlari va o'tishlari, joy almashish, shovqin (pomexa), nuqtalar xiraligi va boshqa nuqsonlar filtratsiyasini amalga oshiruvchi algoritmlarni qamrab olgan identifikatsiya qilish mexanizmi yaratilgan.

Chiziqli va nochiziqli muvozanatli filtrlar, xatolikni nazorat qilish, vektorli kvantlash, segmentlash, "sirpanish oynasi"ni hosil qiluvchi vositalar sintezlashuviga asoslangan tasvirni identifikatsiya qilish gibridd modelini qurilgan.

Testlashtirish jarayonida model va vositalar impulsli shovqin ta'siriga yo'liqsa, dastlabki ma'lumot tanqisligi mavjud sharoitlarda ularning samaradorligi juda past qiymatda bo'lishi aniqlandi.


Bunda, avtokorrelyatsiya, nuqtalar bog'liqligi, ortiqchalikni reduksiya qilish vositalari qo'llanilganda tasvirni identifikatsiya qilishdagi xatoliklar sezilarli darajada kamayadi. Identifikatsiya xatoligi ishonchli interval bo'yicha nazorat qiluvchi vositaga asoslansa, u holda identifikatsiya aniqligi, tanish va sinflashtirish natijalari ishonchlilik yuqori ko'rsatkich qiymatlarida ta'minlanadi. Tajribalarda, ishlab chiqilgan identifikatsiya xatoligini ruxsat etilgan qiymatlar, orttirmalar, ekstrapolyatsiya xatoliklari chegaralari va boshqa vositalarni qo'llash qiziqarli natijalar berishini ta'kidlaydi.

Tadqiqotda quyi $\alpha_\alpha - x$ va yuqori $\alpha_\alpha + y$ bo'sag'ada xatolikni nazorat qilish vositasi taklif etilgan. Bo'sag'alar $\{\beta_j\}$ nuqta qiymati to'plamini ikki qismdagi to'plamlarga ajratadi, ya'ni ruxsat etilgan - $\{\beta_p\}$ $\alpha_\alpha - x \leq \beta_p \leq \alpha_\alpha + y$ va ruxsat etilmagan $\{\beta_3\}$ $\alpha_{\min} \leq \beta_3 < \alpha_\alpha - x$; $\alpha_\alpha + y \leq \beta_3 < \alpha_{\max}$. Nazorat qoidasi bo'yicha ikki turdagi xatoliklar ehtimoliga yo'l qo'yiladi.

Birinchi turdagi - $P_1 = P\{\alpha_i \neq \beta_j; \beta_j \in \{\beta_p\}\} = P \frac{x+y}{B-\delta}$ va ikkinchi turdagi

$$- P_2 = P\{\alpha_i \neq \beta_j; \beta_j \in \{\beta_3\}\} = (1-P) \left[1 - \sum_{\alpha_i = \alpha_\alpha - x/\delta}^{\alpha_\alpha + y/\delta} f(\alpha_i) \right].$$

2-rasmda grafiklar K_T - mikroob'ektlar tasviri axborotiga ishlov berish murakkabligi koeffitsiyenti va L - turli o'lchamli o'rgatuvchi tanlama, hamda gibridd modellar bo'yicha qurilgan. 1-grafikda sintezlashgan uch qobiqli neyron tarmoq (NT) va Dobeshi, 5 modeli, 2-grafikda sintezlashgan Kohonen NT va Dobeshi, 5 modeli, 3-grafikda esa sintezlashgan radial bazisli tarmoq va Dobeshi, 5 modeli tasvirlangan.



2-rasm. Mikroob'ekt identifikatsiyasi samaradorligi.

Tajribalarda ishlab chiqilgan mexanizm va vositalar axborotga ishlov berish tezligini 1,17 dan 5,4 marotabaga oshirishi, tarmoq o'rgatish algoritmi iterativligi esa 3-4 marotabaga kamayishi aniqlandi.

Tasvir identifikatsiyasi xatoligi eng kichik o'rta-kvadratik xatolik ifodalari bo'yicha baholanadi. Bu natijalar turli xil identifikatsiya qilish modellari va vositalari asosida o'tkazilgan sinovda aniqlangan. Nazorat vositalarining imkoniyatlari axborotlarda xato sodir bo'lish ehtimolining turli qiymatlarida, nazorat bo'sag'alari, dispersiya va korrelyatsiya funksiyalarini hisoblash ifodalari asosida, hamda normal, log-normal qonunlar va Reley, β -taqsimotlari bo'yicha aniqlangan.

Agar mikroob'ekt tasvirlarini identifikatsiya qilish interpolatsiya va ekstrapolyatsiya splayn-funksiyalari hamda polinomial bazis modellarga asoslangan bo'lsa, mexanizm umumlashgan modeli va algoritmlarining turg'unligi yuqori qiymatda bo'lishi ta'kidlanadi.

Bazis splayn nuqtalari soni oshganda tasvir identifikatsiyasi xatoligi qiymati anchaga kamayadi. Shuni ta'kidlash kerakki, natijalar nostasionar jarayonlar vizual nazoratiga asoslangan an'anaviy texnologiyaga nisbatan biz taklif qilgan mexanizmlar kam hisob operatsiyalari hajmida identifikatsiya vazifasini amalga oshiradi. Kubik bazis splaynga asoslangan identifikatsiya mexanizmining xatoligi polinomial identifikatsiyaga nisbatan 1,39 marotaba kichik bo'ladi, hamda identifikatsiya vaqti 2,33 marotaba kamayadi.

Dissertatsiyaning **“Tasvir morfometrik tasnifidan foydalanuvchi vositalar bo'yicha mikroob'ektlarni identifikatsiya qilish model va algoritmlarini ishlab chiqish”** nomli uchinchi bobida mikroob'ektlarni optimal tanish va sinflashtirishda yuqori darajadagi imkoniyatlarni yaratuvchi tasvir morfometrik xossa va tasniflarida, ya'ni geometrik, morfologik, gistologik, adaptiv segmentlash, bo'sag'alar bo'yicha filtrlash, xato nuqtalarni aniqlash, ortiqcha fragmentlarni bartaraf qilish vositalariga asoslangan maqbul yondashuv, prinsip, model hamda algoritmlar tadqiq qilingan.

Natijalar, tibbiyot obyektlari va chang zarralari ma'lumotlariga asoslangan mikroob'ektlarni to'g'ri va noto'g'ri tanib olish hamda sinflashtirish mezonlari bo'yicha taqdim etilgan. Masalan, «kirish-chiqish» funksiyasi

- $y = (y_1, y_2, \dots, y_n) \rightarrow \min(\max)$, $y_j = f_j(x_1, x_2, \dots, x_l)$, $j = \overline{1, n}$ ko'p faktorli mezon modeli ko'rinishida optimallashtirish uslubi bo'yicha yechilgan.

Identifikatsiya qilish mexanizmi uch qobiqli NT, Dobeshi 5 veyvlet-o'girish modellari va vositalari sintezlashuvi asosidagi gibril model va umumlashgan algoritmgaga asoslangan. Algoritm 700 ta tasvir kvant nuqtalari o'lchamida test qilingan. Shu kabi natijalar Hopfield, Hemming, Kohonen va ikki yo'nalishli assotsiativ xotira tarmoqlarini qo'llashda ham olingan.


Uch qobiqli NTda neyronlar bog'liqligi qobiq bo'yicha amalga oshiriladi. Kirishlarda uchta neyron signalini qabul qilib, ular sinapslar orqali o'tadi. Natijada, neyron tarmog'i uchta chiqish signallarini taqdim etadi, bu esa chiqishni tashkil qiladi.

Umumlashgan model axborotga parallel ishlov berishni, NT hisob sxemalarini moslashtirishni, normallashtirishni, tasvir tasnifidan foydalanishni, binarlashtirishni, rangli tasvir nuqtalari va teksturasining yorqinlik tasniflarini qamrab oladi. Shu tufayli, mikroob'ektlarni identifikatsiya qilish aniqligi an'anaviy vizual texnologiyaga nisbatan 12% ga oshadi. Mikroob'ektlar identifikatsiyasi xatoligini yumshoq bo'sag'ali nazorat qiluvchi vosita, qattiq bo'sag'ali nazorat qilish va konturni uzluksiz segmentlashtiruvchi vositalarga qaraganda samaraliroqdir. Ko'p mezonli optimallashtirishga asoslangan mikroob'ektlar tasvirini identifikatsiya qilish mexanizmi kontur chegaralari yorqinlik kontrastini kuchaytirishni va ikki o'lchamli veyvlet-tahlil hamda B-splaynni qo'llashni o'z ichiga oladi. Sil xastaligiga yo'liqqan bemorlar o'pka CXR-tasvirlarining chegaralarini aniqlash bo'yicha tajribaviy tadqiqot o'tkazilgan. Bunda umumlashgan algoritm samaradorligi 80 tasi o'pka patologiyasiga ega tasvir va 50 tasi patologiyasiz tasvir misolida aniqlangan. Xastalik chegarasi belgilangan tasvirlar va sog'lomlikni akslantiruvchi boshqa o'pka tarkiblari aniqlangan. O'pka chegarasini aniqlash va sinflashtirish, xasta va sog'lom obyekt konturlarining o'zaro o'xshashligi aniqligi, vositaning sezuvchanligi va aniqligi bo'yicha baholangan. Tibbiy ob'ektlarni tanish va sinflashtirish o'rtacha aniqligi 96% bo'ladi. Anomal CXR tasvir sinflashtirish xatoligi 4% dan oshmaydi.

3 a)-rasmda o'pka xastaligi hujayrasi tasviri, ishonchli tanish ehtimoligida $P_i = n_i / N_i$, ma'lum intervalda, $\mu = \lambda \tau$ intensivlik parametriga bog'liq holda qurilgan grafiklar namoyishi ko'rsatilgan. Natijada, axborotga ishlov berish vositalari tasvirni o'rganish ishonchliligi va tezkorligini oshirishligi akslantiriladi.

3 b)-rasmda tasvir spektral tasnifi RGB sohada, uning qismlari foni, nuqtalar intensivligiga bog'liq holda qurilgan grafiklar keltirilgan. Grafikning chap qismi uzluksiz chiziq bilan, o'rta qismi shtrixli chiziq bilan, o'ng qismi esa shtrix punktirli chiziq bilan tasvirlangan.

Tasvirni identifikatsiya qiluvchi mexanizm nuqtalar intensivligi spektr medianasi atrofida almashtirilganda o'z samaradorligini namoyish etadi. Mexanizm samaradorligi mikroob'ekt chegaralari shaffofligi (kontrastligi) past bo'lganda, impuls shovqinlari va boshqa nuqsanlar mavjud bo'lganda ham yaxshi saqlanadi. Bunda, bir tasvir axborotini qayta ishlashga ketgan vaqt 9,532 mks, 450 ta tasvir ko'rilganda esa 42,75mks tashkil etadi.



3-rasm. Tasvir identifikatsiyasi sifatini baholash tasniflari.


Bir tasvirni filtrlash va segmentlashga ketgan o'rtacha vaqt 9,266mks, NT tarmog'ini o'rgatishga ketgan vaqt esa 0,006 mks bo'ladi. Ayniqsa, mexanizm tasvirni vektor kvantlashtirish, raqobatlash, Gauss yadrosini qo'llash, shovqinli va impuls shovqinlarini bartaraf etish, ob'ekt chegaralarini saqlash, reduksiya qilish, medianali filtrlash va veyvlet-o'girish vositalarini o'z ichiga olganda, ularning samaradorligi yorqin namoyish etiladi.

Dissertatsiyaning "**Mikroob'ektlar tasvirini identifikatsiya qilish, tanish, sinflashtirish dasturiy majmuasini yaratish, joriy qilish va samaradorlik tahlili**" nomli to'rtinchi bobida mikroob'ektlarni identifikatsiya qilish, tanish va sinflashtirish uchun dasturiy majmua ishlab chiqilgan. Dasturiy majmua C++ tilida joriylashtirilgan. Mikroob'ektlar tasvirilarini olish, tahlil qilish, hisoblash, tanish va tasniflash hamda dasturiy majmua interfeysi uchun dasturiy modullar ishlab chiqilgan.


Bundan tashqari, dinamik modelga kiritilgan neyron tarmoq o'zgarmas arxitekturada bo'lganda, namunaga ishlov berish uslubi vektori bo'yicha ishlov berishga almashtirilganda, tasvir identifikatsiyasi kam xatolik bilan amalga oshiriladi. Lozim bo'lgan hollarda, har bir mikroob'ekt namunasi tasviri sensor maydonida korreksiya qilinadi. Tadqiqotda dasturiy majmuaning ijobiy xossalari identifikatsiya qilishda quyidagi vositalar qo'llanilganda yaxshi namoyishlanishi ko'rsatilgan: uch qobiqli neyron tarmoq, dinamik modellar, nuqtalar surilishini vizual kuzatish, informativ bo'lmagan nuqta va lokal belgini belgilash va shovqinlarni filtrlash, nuqtalar xiraligini, surilishini va boshqa nuqsonlarni bartaraf qilish, nuqta yorqinligi va soyasini korreksiya qilish vazifalari bajarilishi talab etiladi.

4-rasmda mikroob'ektlar tasvirini identifikatsiya qilish, tanish va sinflashtirish uchun yaratilgan dasturiy modullar algoritmik sxemasi namoyish etilgan.

5 a), b)-rasmlarda ko'rsatilgan funksional $E(x, y)$ grafklari kontur nuqtalarining OX va OY o'qlari bo'yicha o'zgarishida hamda β zichlik a) 36×36 ; b) 64×64 bo'lgan hollar uchun namoyishlangan. 1-grafik, agar $\beta = 0,5$; 2-grafik, agar $\beta = 1,5$; 3-grafik, agar $\beta = 2,5$; 4-grafik, agar $\beta = 3,5$; 5-grafik, agar $\beta = 4,5$ qiymatlarda qurilgan.



4-rasm. DM tarkibiy modullari.



5-rasm. DM samaradorligi tahlili.

Tadqiqotda, DM axborotga avtomatlashtirilgan ishlov berish darajasini an'anaviy texnologiyaga nisbatan 10% ga oshirishi mumkinligi aniqlandi. Tadqiqotlar quyidagi mezonlar qiymatlarida olib borilgan: P_D – mikroob'ektni ishonchli tanish va sinflashtirish ehtimoli, P_{ER} – tanish va sinflashtirish xatoliklari ehtimoli, P_D/P_{ER} – yutuq koeffitsiyenti; T , C – axborotga ishlov berish murakkabligi bo'yicha yutuqlar koeffitsiyenti.


1-jadvalda eksperimental tadqiqotlar natijalari turli vositalarni qo'llash bo'yicha mikroob'ektlarni ishonchli tanish va sinflashtirish ehtimolining optimal qiymatlari keltirilgan.

1-jadval

№	Optimallashtirish tasniflari	Samaradorlik me'zonlarining ahamiyati			
		P_D	P_D/P_{ER}	T	S
1	Statistik	$12 \cdot 10^{-5}$	$0,35 \cdot 10^{-1}$	6-7	3-4
2	Dinamik	$2,34 \cdot 10^{-5}$	$0,62 \cdot 10^{-1}$	8-9	3-4
3	Morfometrik	10^{-5}	$0,3 \cdot 10^{-1}$	10-12	5-7
4	Geometrik	$1,5 \cdot 10^{-6}$	$0,44 \cdot 10^{-2}$	10-13	8-9
5	Chastotali- spektrli	$1,3 \cdot 10^{-6}$	$0,3 \cdot 10^{-2}$	13-15	10-12

Tadqiqotlarda, agar axborotda sodir bo'lgan xatolik ehtimoli o'rta qiymati $10^{-4} - 10^{-5}$ bo'lganda, 100 ta mikroob'ekt tasvirini ishonchli tanish va sinflashtirishga sarflanadigan vaqt 1,1 soatgacha qisqarishi, yutuq esa 3-5 marotabaga oshishi, axborotga ishlov berish murakkabligi koeffitsiyentlari 5-6 marotabaga qisqarishi mumkinligi aniqlangan.

Bundan tashqari, tibbiyot mikroob'ektlarini identifikatsiya qilish aniqligini oshirish uchun quyidagi operatsiyalarni bajarish natijasida: tayanch nuqtalarni ob'ekt foni sohasiga mos ravishda oshirganda; informativ bo'lmagan nuqtalarni bartaraf etish orqali zarra tasvirini soddalashtirganda; ichki nuqtalar sonini kamaytirish hisobiga zarra tasviri konturini yo'g'onlashtirganda; nuqtalar yorqinligi qiymatlariga asoslanib, zarra tasviri bilan bog'liq bog'langan sohalarni aniqlaganda ijobiy natijalar kuzatildi.



6-rasm. Parallel hisoblanish muhitida DM samaradorligi.

Agar mikroob'ekt tasviri o'lchami 4000×2000 gacha oshirilsa, DM samaradorligi 24% gacha oshadi. Shundan, 19% tasvirni fazo RGB dan HSV fazosiga o'g'irganda, hamda parallel hisoblanish paketi «CUDA» ni qo'llaganda

sodir bo'ladi. 6-rasmda samaradorlik grafiklari parallel hisoblash muhitida namoyish etilgan. Grafiklarning taqsimlanishi quyidagicha: 1-grafik – yassi chiziq CPU RGBga, 2-grafik – shtrixli chiziq GPU RGB0ga, 3-grafik – shtrix punktirli chiziq GPURGBga mos keladi. Tadqiqotda birinchi tasvir, tajriba jamlamasi bo'yicha mikrozararlarni tanish ishonchliligi 74%, ikkinchi tajriba jamlamasida – 87%, uchinchi tajriba jamlamasida – 86%, to'rtinchi tajriba jamlamasida – 84% ga oshirilishi mumkinligi aniqlangan.

XULOSA

“Tasvir tarkibiy ortiqchaligi xossalari asosida mikroob'ektlar identifikatsiyalanishini maqbullashtiruvchi usullar” mavzusidagi dissertatsiya ishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Palinologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologiya, tibbiyot, tog' konchiligi tizimlari va boshqa bilimlar sohalarida mikroob'ektlar tasviri tarkibiy ortiqchalik xossalari - statistik, dinamik, tekstura, morfometrik, geometrik, gistologik tasniflaridan foydalanishga asoslangan optimal identifikatsiya qilish, tanish, sinflashtirish vazifalarini bajarish uchun maqbul yondashuvlar, prinsiplari va vositalar turlari ishlab chiqilgan.

2. Mikroob'ekt tasviri konturini defektini filtrlash, vaqtli qator nuqtalarini ruxsat etilgan, dinamik orttirmalari, bashoratlash modellari xatoliklari qiymatlarini nazorat qilish masalalari umumiy va xususiy yechimlari olingan. Agar real tasvirning etalon tasvirga mosligi nochiziqli nazorat va stoxastik qidiruv vositalari yordamida amalga oshirilsa, identifikatsiya natijalari yuqori aniqlikda olinadi.

3. NTga asoslangan dinamik modellar mikroob'ekt tasviri tasniflarini ajratish, konturini segmentlash, tarkibda yot zarrani, shovqin, impulsli pomexani, nuqta xiraligini va boshqa nuqsonlarni bartaraf qiluvchi umumlashgan algoritmlar qurilgan. Agar gibrid algoritimga vektorli kvantlash, raqobat va gauss yadrosini shakllantirish, filtrlar chegarasini barqaror qilish, veyvlet-o'girish vositalari qo'llanilsa, identifikatsiya qilish samaradorligi yorqin namoyishlanadi.

4. Mikroob'ektlar identifikatsiyasi optimal tasvir xossalari va tasniflarini ajratish, konturini kontrastlash, segmentlash, binarlash, nuqtalarini approksimatsiyalash, sirpanish “oyna”sida kuzatish algoritmlari bo'yicha DM tarkibi kengaytirilgan. Bu vositalar, axborotga ishlov berish, tanish va sinflashtirish vazifalarining ishonchligini yuqori darajada ta'minlaydigan chegaralar va sharoitlar aniqlangan.

5. Ishlab chiqilgan DM va uning funksional modullari samaradorligi: g'alla seleksiyasi va urug'chiligi; allergiya kasalliklari; atmosfera ifloslanishligi tadqiqotida chang zarralarini qayd va tahlil qilish; bemorlarda sil kasalligini tashxis qilish; oziq-ovqat ingrediyentli tarkibi va qiymatlarini tahlil hamda qayd qilish masalalarida yechimlar asoslangan. Natijada, identifikatsiya qilish aniqligi 98,3% gacha, axborotga ishlov berish tezligi 2 marotabagacha, tanish va sinflashtirish ishonchliligi 19% dan 24% gacha oshishi, axborotga ishlov berish murakkabligi koeffitsiyenti 3-5 marotabagacha va moddiy xarajatlar 20%ga kamayishi aniqlangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ Р^hD.03/29.12.2023.Т.02.12 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

САФАРОВ РУСТАМ АБДУЛЛАЕВИЧ

**МЕТОДЫ ОПТИМИЗАЦИИ ИДЕНТИФИКАЦИИ МИКРООБЪЕКТОВ
НА ОСНОВЕ СВОЙСТВ ИЗБЫТОЧНЫХ СТРУКТУРНЫХ
СОСТАВЛЯЮЩИХ ИЗОБРАЖЕНИЙ**

05.01.02 - Системный анализ, управление и обработка информации

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (Р^hD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Самарканд – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за номером B2022.2.PhD/T2827

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.samdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Жуманов Исраил Ибрагимович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Каландаров Палван Искандарович
доктор технических наук, профессор

Гулямов Жавлон Нуриллаевич
доктор философии по техническим наукам (PhD)

Ведущая организация:

Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова

Защита диссертации состоится « 17 » декабря 2025 г. в 15⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/29.29.12.2023.T.02.12 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова (Адрес: 140104, г. Самарканд, университетский бульвар, 15. Тел.: (99866) 239-11-40; факс: (99866) 239-11-40; E-mail: devonxona@samdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (регистрационный номер № ____). (Адрес: 140104, г. Самарканд, университетский бульвар, 15. Тел.: (99866) 239-11-40; факс: (99866) 239-11-40).

Автореферат диссертации разослан « 24 » декабря 2024 года.
(протокол рассылки № 3 от « 23 » декабря 2024 года).



[Handwritten signature]

А.Р.Ахатов
Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор технических наук, профессор

[Handwritten signature]

Ф.М.Назаров
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор философии по
техническим наукам, доцент

[Handwritten signature]

Х.А.Примова
Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению
ученых степеней, доктор технических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD)).

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире особое внимание уделяется автоматизации, применениям электронных, цифровых, интеллектуальных систем управления. На сегодняшний день в таких развитых странах, как США, Китай, Россия, Германия, Франция, Япония, Великобритания, Южная Корея, Индия и других проводятся масштабные исследования, направленные на решение вопросов идентификации, распознавания и классификации изображений микрообъектов. Эти исследования востребованы в предметных областях таких, как экология, охрана окружающей среды, медицина и палинология. Для предсказания и изучения загрязнения воздуха применяют базы данных, автоматической идентификации, распознавания, классификации, систематизации пыльца. Европейские страны, занимающиеся сбором, подсчетом, анализом и идентификации пыльца, посылают еженедельно информацию по глобальным сетям. Особое внимание уделяется научному обоснованию необходимости для разработки методов анализа изображений микрообъектов, обработки информации, а также управлению в сложных системах.

В мире положительные результаты в указанном научном направлении считаются приоритетными и направлены на создание моделей и алгоритмов для обработки изображений различных типов — пылевые частицы, одноклеточные микроорганизмы, медицинские объекты и полезные ископаемые. Исследования включают разработку методов многовариантного принятия решений, применения широкого спектра статистических, динамических, вероятностных и интеллектуальных моделей. При идентификации изображений микрообъектов возникают различные проблемы — наличие «шума», помехи, смази точек, сдвигов и ошибки в информации. Эти дефекты создают серьезные трудности в процессе идентификации, распознавания и классификации изображений. В то же время в направлении развития технологий, направленных на снижение влияния человеческого фактора, особое внимание уделяется созданию средств использования свойств избыточность структурных составляющих изображения микрообъектов — статистических, динамических, морфометрических, геометрических и других характеристик, а также разработке оптимальных механизмов для идентификации, распознавания и классификации микрообъектов.

В Республике активно внедряются технологии искусственного интеллекта, методы цифрового управления и автоматизированные информационные технологии во всех отраслях. Особое внимание уделяется внедрению высокоточных технологий идентификации в таких сферах, как палинология, экология, селекция и семеноводство, охрана окружающей среды и медицинские системы. В этих областях с помощью искусственного интеллекта и цифровых технологий разрабатываются эффективные методы идентификации, классификации и анализа микрообъектов. В постановлении

Президента РУз об утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан - 2030» и мерах по ее эффективной реализации, в том числе задачах, направленных на «... развитие научно-исследовательских разработок, ориентированных на создание высокотехнологичных продуктов с высоким потенциалом коммерциализации в сфере информационных технологий...»². В этих областях разрабатываются эффективные методы обнаружения, классификации и анализа микрообъектов с использованием искусственного интеллекта и цифровых технологий. Важное значение придается совершенствованию методов, механизмов и технологий, основанных на структурных составляющих изображений микрообъектов, а также развитию интеллектуальных систем классификации и их широкому внедрению.

Настоящее диссертационное исследование ориентировано на обеспечение реализации указов, принятых Президентом Республики Узбекистан. В частности, данное диссертационное исследование в определённой степени способствует реализации задач, предусмотренных Указом № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Указом № УП-5349 от 19 февраля 2018 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию информационных технологий и коммуникаций», а также Указом № УП-6079 от 5 октября 2020 года «О утверждении стратегии Цифровой Узбекистан – 2030 и мерах по её эффективной реализации», а также другими нормативно-правовыми актами, относящимися к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан IV. «Развитие информатизации и информационно-коммуникационных технологий».

